

XALQIMIZ ARDOQLAGAN IJODKOR – SHUKUR XOLMIRZAYEV**Namozova Madinabonu Rustamovna**

Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti,

Iqtisodiyot ta`lim yo`nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada, o`zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo`lgan Shukur Xolmirzayevning mazmunli hayot yo`li va yozuvchining durdona asarlari haqida so`z yuritilib, bayon etiladi. Surxon elining zabardast o`g`loni bo`lgan adibning ijod namunalari, har bir kitobxonning yuraklariga tubdan ta`sir qilib, hayotning o`nqir-cho`nqir yo`llaridan qay tarzda halol o`tishni o`rgatadi. Yozuvchining asarlarida xalqona tafakkur, odob-axloq, ijtimoiy ong va tarixiy xotira kabi tushunchalar badiiy obrazlar orqali ifoda etiladi. Adib o`z hikoyalari, romanlari va pyesalari orqali har bir o`quvchini to`g`rilikka, halollikka, odob-axloq qoidalariga rioya qilishga, va har qanday vaziyatda ham o`zligini yo`qotmaslikka chorlaydi. Maqola Shukur Xolmirzayev ijod mahsullarining inson hayotiga ta`sir qiluvchi, tarbiyaviy ahamiyatni o`zida aks ettiradigan manba sifatida taqdim etiladi.

KALIT SO`ZLAR: axloqiy tarbiya, ma`naviyat, Shukur Xolmirzayev, halollik, adabiyot, ijod yo`li, tafakkur, badiiy obrazlar, hikoya, roman.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается значимый жизненный путь Шукура Холмирзаева, одной из величайших фигур узбекской литературы, и шедевры писателя. Творческие примеры писателя, храброго сына сурханского народа, глубоко трогают сердца каждого читателя и учат честному прохождению трудных жизненных путей. В произведениях писателя через художественные образы выражаются такие понятия, как народное мышление, нравственность, общественное сознание и историческая память. Своими рассказами, романами и пьесами писатель призывает каждого читателя быть правдивым, честным, соблюдать правила этикета и не терять свою индивидуальность ни в какой ситуации. Статья представлена как источник, отражающий воспитательное значение творчества Шукура Холмирзаева, оказывающего влияние на жизнь человека.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: нравственное воспитание, духовность, Шукур Холмирзаев, честность, литература, творческий путь, мышление, художественные образы, рассказ, роман.

ANNOTATION. This article discusses the meaningful life path of Shukur Kholmirezayev, one of the great figures of Uzbek literature, and the writer's masterpieces. The creative examples of the writer, a brave son of the Surkhan people, profoundly affect the hearts of every reader and teach how to honestly navigate the difficult paths of life. In the writer's works, concepts such as folk thinking, morality, social consciousness and historical memory are expressed through artistic images. Through his stories, novels and plays, the writer calls on every reader to be truthful, honest, adhere to the rules of etiquette, and not lose their identity in any situation. The article is presented as a source that reflects the educational significance of Shukur Kholmirezayev's creative works, which affect human life.

KEYWORDS: moral education, spirituality, Shukur Kholmirezayev, honesty, literature, creative path, thinking, artistic images, story, novel

KIRISH

Adabiyot soʻzi arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “soʻz sanʼati” degan maʼnoni bildiradi va voqelikni soʻz yordamida, obrazlar orqali aks ettirishni ifodalaydi. Adabiyot har bir xalqning maʼnaviy merosi hisoblanadi, chunki unda voqea-hodisalar, inson his-tuygʻulari va ichki kechinmalari soʻz sanʼati orqali odamzod qalbiga chuqur taʼsir qiladigan darajada, mukammal tarzda yoritilib beriladi. Ayniqsa, hikoya janri orqali hayotiy lavhalar, odamlardagi ichki kechinmalar, maʼnaviy saboqlar qisqa, lekin chuqur maʼno bilan yoritiladi. Oʻzbek hikoyachiligining yirik namoyondalaridan biri Shukur Xolmirzayev oʻz hikoya va qissalarida insonlarni halollikka, toʻgʻrisoʻzlikka, insoniylikka, mehnatni qadrlashga, ijtimoiy-axloq qoidalariga qatʼiy tarzda amal qilishga undaydi. Bundan tashqari, adib hikoyalarida urf-odatlar, anʼanalar, oʻzbek milliy qadriyatlari va oilaparvarlik fazilatlarini oʻz ifodasini topadi. Maqolada, Surxon vohasidan boʻlgan, Oʻzbek millatining mohir hikoyanavissi Shukur Xolmirzayevning hayot yoʻli bilan bir qatorda, adibning ijod namunalari va ularning yosh avlod tarbiyasida, maʼnaviy kamolotga erishishda xizmat qiluvchi jihatlari haqida soʻz yuritiladi.

MOHIR YOZUVCHI VA ADIB SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOT YOʻLI

Mehnat shuhrati ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev — o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo‘lib, u o‘zining hayotiy va chuqur mazmunli asarlari bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan.

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk yozuvchilaridan biri Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-mart kuni Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tavallud topdi. Adib yoshlik paytlaridanoq adabiyot va san‘atga qiziqqa boshlagan. Uning bu qiziqishlariga, adib tug‘ilib o‘sgan Boysun va Boysun elining ta‘siri juda katta edi. Shukur Xolmirzayev maktabda tahsil olayotgan paytlarida o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari mutolaa qilib, bu asarlar haqida chuqur mulohaza yuritganligini va ulardan axloqiy va ma‘naviy jihatdan olgan bilimlari samarasini adibning durdona asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Boysun vohasining betakror va jozibador tabiati, keng daryolari, baland tog‘lari, vohaning ajoyib manzarasi, suvdek toza va tiniq bo‘lgan havosi yoh adibni adabiyotga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirdi.

Shukur Xolmirzayev Boysundagi O‘rta maktabni tamomlab, adabiyotga va san‘atga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirish maqsadida, 1957-yilda Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetiga o‘qishga kiradi. U talabalik paytlarini nafaqat ilm olishga balki, olgan bilimlarini, barcha iste‘dod va mahoratlarini namoyon qilgan holda, qalam tebratib, qog‘ozga tushirishga bag‘ishladi. Natijada adibning ilk hikoya va qissalari aynan mana shu talabalik yillarida xalqqa namoyon qilina boshlandi. Mohir hikoyanavvis Shukur xolmirzayev ba‘zi bir sabablarga ko‘ra o‘z ta‘lim yo‘nalishini jurnalistika sohasiga o‘zgartirib uni 1963-yilda muvaffaqiyatli tamomlaydi va ijodini davom ettiradi. Shukur Xolmirzayevning ilk ijod namunalari bo‘lmish, „Oq oti „To‘lqinlar“ „O‘n sakkizga kirmagan kim bor?“ qissalari chop etilishi bilanoq, adabiyot ishtiyoqmandalari qalbidan munosib joy egalladi. Adib bu asarlarida talabalik, yoshlik yillarining unutilmas lahzalari bilan bir qatorda, Surxondaryo vohasining mo‘jizakor manzaralari bilan kitobxonlarga kayfiyat bag‘ishlaydi. Bu bilan mohir hikoyanavvis Shukur Xolmirzayev inson qay martabaga erishishi yoki qayerda bo‘lishidan qat‘iy nazar, o‘zi o‘tib-ulg‘aygan, kindik qoni to‘kilgan ona yurtini qumsashini, sog‘inishini va hech qachon unuta olmasligini yorqin badiiy tasvirlar orqali ifodalab beradi. Rostdan ham, inson tug‘ilibdiki, o‘zini hech qachon musofir yurtlarda, o‘zining kichik bo‘lsa ham, mehr-muruvvatga to‘la uyidagidek erkin his qila olmaydi.

Yuqorida aytib o‘tganidek, adib hikoya va qissalarida yoshlik chog‘larining romantik pafosini badiiy obrazlar orqali mukkamal tarzda tasvirlab bergan. Ayniqsa,

mohir yozuvchining “O`n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasi yoashlar hayoti, muhabbat va ma`naviy kamolot masalalariga bag`ishlangan. Shuning uchun ham asarning ramziy nomi “O`n sakkizga kirmagan kim bor?”, ya`ni har bir inson tug`ilibdiki, taqdiriga bitilgan bo`lsa, bu davrni boshidan kechiradi. Qissaning markazida yoshlarning hayotga kirib kelishi, ya`ni **balog`atga yetish jarayoni** tasvirlanadi. Kishilar balog`atga yetish paytida ko`plab xatolar qiladi, lekin bu xatolardan saboq olish insonni mukammallik sari yetaklaydi. Kishi aynan yoshlik chog`ida mana shunday xatolar girdobiga kirib qoladi, va bu mushkul vaziyatdan insonlar halollik va to`g`rilikka intilgan holda chiqadimi yoki buning aksini tanlaydimi bu kishining tanloviga bog`liq. O`smir paytida qanday tanlov qilsa, bu uning kelajagini belgilaydi. Aynan shuning uchun ham, navqiron va yoshlik chog`i kishilar uchun muhim bosqich hisoblanadi. Asarning yana bir sasosiy yo`nalishlaridan biri – yoshlar o`rtasidagi sevgi. Lekin bu oddiy sevgi emas, balki, sadoqat, ma`suliyat va hayotiy tanlov bilan bog`liq muhabbatdir. “O`n sakkizga kirmagan kim bor?” - bu oddiy muhabbat qissasi emas. Balki u yoshlikning murakkabligi, insoniy tanlovlar, hayot saboqlari haqida chuqur falsafiy asardir.

Adibning talabalik yillari mana shunday nodir asarlarni yaratish bilan, juda qizg`in tarzda o`tib, o`qishni tamomlagach mohir so`z ustasi 4 yil davomida “Yosh Gvardiya” nashriyotida muharrir sifatida faoliyat yuritadi. Muharrirlik kasbi yuksak mahorat va diqqatli bo`lishni talab qiladigan faoliyatdir. Shukur Xolmirzayev ana shunday kuchli iste`dod egasi bo`lganligi sababli, o`z ijodini davom ettirgan holda bu ishning ham uddasidan chiqdi. Lekin mohir so`z ustasi bu faoliyatlar bilan chegaralanib qolmay, o`zining mahoratini, ijodini teatr sahnalarida ham namoyon qilishni xohladi va Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh sifatida faoliyat yuritib, o`zining yuksak mahoratini realistik qahramonlar orqali yorqin ifodalab berdi. Shukur Xolmirzayev teatrdagi faoliyatini 1967-yildan boshlab, keyingi 2 yil davomida xalqqa fidokorona xizmat qildi. Keyinchalik iste`dodli ijdkor „Guliston“ jurnalida adabiy xodim bo`lib, 6 yil davomida o`z malakasini oshiradi. Adib har bir masalada halollikka intilganini uning asarlarida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Aynan shu jihatni o`z kasbiy faoliyatida qo`llay olgan adib bu Shukur Xolmirzayevdir. U „Guliston“ nashriyotida ishlaganida ham har bir muallifdan kelgan asarlarni o`qib ularni tahrirlar edi **tayyorlash**. Nashr uchun **maqola, hikoya va ocherklar tayyorlayotgan kezlarida adib har bir o`qigan asarlaridan tarbiyaviy xulosa chiqarishga uringan**. Ijodkorlar bilan aloqa qilish va material to`plashda hech qachon ishni ortga surmagan va aksincha doimo o`z ishiga

ma`suliyat bilan yondashgan. Ba`zan o`zi ham yozuvchilarga tavsiyalar berib, kerak bo`lsa qayta ishlashlari kerak ekanligini ham aytgan. Mana shunday tarzda mohir ijodkor, hamkasblariga yordam berish va halollikka intilish bilan bir qatorda o`z tajribasini ham sezilarli darajada oshirgan. Bundan tashqari, adib „Sharq yulduzi“ jurnalida, bo`lim mudiri bo`lib, 1978-1980-yillarda o`z faoliyatini davom ettiradi.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek Shukur Xolmirzayev mohir hikoyanavvis hisoblanib kelgan. Adibning 1974-yilda chop etilgan, „Hayot abadiy“ hikoyasi har bir insonni bir lahza sukut qilib, chuqur mulohaza qilishga undaydi. Bu asarda hech bir inson qancha umr ko`rishini bilmasligi va kishi har bir kunini mazmunli o`tkazishi darkorligi so`z san`ati rqli ifodalab beriladi. Asar qahramoni Nodir o`limi oldidan oilasini, qo`shnilarini ranjitdi va oxir-oqibat ko`p o`tmadan bu olamdan ko`z yumdi. Lekin hayot davom etib ketaveradi, faqat buni Nodir ko`ra olmaydi. Shuning uchun ham adib bu hikoyasi bilan, barcha insonlarni faqat yaxshilikka undaydi. Har bir kunni yaqinlar bilan birgalikda yaxshi kayfiyatda o`tkazishga chorlaydi.

Mohir yozuvchining bundan tashqari, aynan shu hikoyasiga o`xshagan ibratli yana bir qancha ijod namunalrini ham ko`rishimiz mumkin. Uning 1971-yilda chop etilgan „Olis yulduzlar ostida“, 1980-yilda nashr qilingan „Og`ir tosh ko`chsa...“, 1984-yilda xalqqa namoyon qilingan „Yo`llar, yo`ldoshlar“, 1986-yilda omma oldida e`lon qilingan „Bodom qishda gulladi,“ va 1987-yilda yaratilgan „Tog`larga qor tushdi“singari to`plamlari buning yaqqol namunasi. Yozuvchining bu asarlari o`zbek adabiyotining 70-80- yillardagi hikoyalarining eng yaxshi namunalaridan biri bo`lib qoldi. Adibning bu hikoyalarida har bir kitobxon shafqatsiz realizm unsurlarini yaqqol ko`rishi mumkin. Shukur Xolmirzayev asarlari voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olami aks etganligi va adib hikoya va qissalarida asosiy qahramon lar qishloq aholisining oddiy mehnatkashlari ekanligi, adibning haqiqiy ijodkor ekanligini yaqqol isbotlab beradi.

„ Shukur Xolmirzayev 1964-yili O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi a`zoliciga qabul qilindi. Adib 1989-yili „Olabo`ji“ romani uchun Hamza nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanadi. Mohir hikoyanavvis 1985- 1988- yillarda O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasida nasr bo`yicha adabiy maslahatchi lavozimida ishlagan. Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-siyosiy va adabiy masalalarga bag`ishlangan maqolalari, atrofidagi faoliyati aynan 80-yillarning ikkinchi yarmiga to`g`ri keladi.

Bunga 1985-yilda yaratilgan “Hayot abadiy” maqolalar toʻplamini misol qilib olishimiz mumkin.

Shukur Xolmirzayev oʻzbek adabiy tanqidchiligida Abulla Qahhor ijodiy maktabini davom ettiruvchisi va uning uslubiga sodiq qolgan shogird sifatida eʼtirof etiladi. Shuni taʼkidlash joizki, Shukur Xolmirzayev bilan bir oʻlkada ulgʻaygan va ijodiy hamnafas hisoblangan adib sifatida Erkin Aʼzamni keltirishimiz lozim boʻladi. Noyob iqtidor egasi boʻlgan adibni, oʻzbek adabiyotida psixologik hikoya va qissa janrining “islohotchisi” deb atashimiz mumkin. U bolaligidan qishloq hayoti, tabiat va insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni kuzatib ulgʻaydi. Bu esa keyinchalik uning ijodida asosiy mavzulardan biriga aylandi. Adibning “oʻzbek xarakteri” tushunchasiga bergan taʼrifi va qarashlari koʻproq togʻ va qishloq odamalari, oddiy mehnatkashlar orqali ochib berildi.

Adibning “Olaboʻji”, “Qora kamar”, “Omon ovchining oʻlimi”, “Soʻnggi bekat” kabi asarlari oʻzbek adabiyotida alohida oʻrin egallaydi. Bu asarlarda inson ruhiyati, hayotning murakkab jihatlari, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash teran ochib berilgan. Shukur Xolmirzayevning „Soʻnggi bekat“, „Yoʻlovchi“ va „Olaboʻji“ romanlarida shoʻro jamiyatining 70—80-yillarga kelib ichdan yemirila boshlagani yorqin badiiy obrazlar orqali aks ettirildi. Oʻzbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati“ deb atab kelingan davrini . Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan boʻlib oʻrgana boshladi. Yozuvchining „Qil koʻprik“ romani va 1987-yilda yaratilgan „Qora kamar“ pyesasida shu mavzu oʻz ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalantirilgan. Uning pyesasi asosida, Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrda spektakl sahnalashtirilgan „Qora kamar“ spektakli yosh avlodda tarixiy oʻtmishga yangicha yondashish maylining paydo boʻlishida muhim rol oʻynadi. Adib 1991- yili Oʻzbekiston xalq yozuvchisi unvoni bilan taqdirlanadi. Bundan tashqari, Shukur Xolmirzayev xalqqa koʻrsatgan xizmatlari uchun Fidokorpna xizmatlari uchun ordeni bilan mukofotlanadi.

Shukur Xolmirzayev ijodining asosiy xususiyati — hayotiylik, samimiylik va ruhiy chuqurlikdir. U oddiy voqealar orqali katta maʼnolarni ochib bera olgan yozuvchi sifatida eʼtirof etiladi. Uning asarlarida tabiat tasviri ham muhim oʻrin tutadi va u koʻpincha inson ruhiy holati bilan uygʻun holda beriladi.

Shukur Xolmirzayev 2005-yilning 29-sentyabr kuni Toshkent viloyatida vafot etadi. Lekin uning boy ijodiy merosi bugungi kunda ham oʻqilmoqda va qadrlanmoqda.

U o‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqqan adiblardan biri sifatida adabiyot tarixida munosib o‘rin egallaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Shukur Xolmirzayev — XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hayoti va ijodi xalq ruhiyati, milliy qadriyatlar va inson qalbining nozik kechinmalarini aks ettirish bilan ajralib turadi. U ko‘proq qissa va hikoyalari orqali insonlar ma‘naviyatiga chuqur ta‘sir qilib, asarlarida oddiy insonlarning ichki dunyosi, tabiat bilan uyg‘unligi va hayot haqiqatlari chuqur tasvirlanadi. Adib uchun eng muhim mavzu — insonning ichki pokligi, vijdoni va o‘zligini anglashidir. Shukur Xolmirzayev ijodi — bu inson va tabiat, qalb va haqiqat o‘rtasidagi nozik bog‘liqlikni ifodalovchi badiiy olamdir. U o‘z asarlarida sun‘iylikdan yiroq, samimiy va hayotiy obrazlarni yaratib, o‘quvchini o‘ylashga, his qilishga qilishga undaydi. Shukur Xolmirzayevning asarlari xuddi sokin oqayotgan daryo kabi — tashqaridan oddiy ko‘rinsa-da, ichida chuqur ma‘no

va hayot hikmatlari yashiringan. Uning ijodi o‘quvchiga shuni eslatadi: haqiqiy boylik — bu inson qalbidagi samimiyat, tabiatga mehr va hayotga sadoqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukur xolmirzayev (2007) Saylanma, IV jild, esselar. Sharq nashriyot – matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2007
2. Shukur Xolmirzayev, O‘zbekiston. Toshkent – 2022.
3. Shukur xolmirzayev Saylanma, V jild, qissalar. Sharq nashriyot – matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2016
4. Mutolaa ilovasi. Shukur Xolmirzayev hikoyalar to‘plami.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2005). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
6. Shukur xolmirzayev hayoti va ijodi. 2026
7. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI G. N. Tavaldieva (2020).